

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Toshkent davlat agrar universiteti


O'quv ishlari bo'yicha prorektori

 S.G. Boboyev

2025 yil " " "

Ro'yxatga olindi: № BD- 60410100- 1.07

2025 yil 31 avgust



**IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI
FANING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	400 000	- Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410 000	- Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410100	- Iqtisodiyot
	60410200	- Buxgalteriya hisobi

Toshkent -2025

Fan/modul kodi ITT1105	O'quv yili 2025-2026	Semestr I	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/ rus		Haftadagi dars soatlari 5	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Iqtisodiy ta'limotlar tarixi	60	90	150
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - ayrim shaxslar, ijtimoiy guruhlar yoki umumjamiyat manfaatlarini ifodalovchi iqtisodiy fikr, qarash, g'oya, nazariya va ta'limotlarning shakllanishi, rivojlanishi, yemirilishi va almashinuvining tarixiy jarayoni bo'yicha bilim va ko'nikmani hosil qilish.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga ayrim shaxslar, ijtimoiy guruhlar yoki umumjamiyat manfaatlarini ifodalovchi iqtisodiy fikr, qarash, g'oya, nazariya va ta'limotlarning shakllanishi, rivojlanishi, yemirilishi va almashinuvining tarixiy jarayonini tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanining predmeti va o'rganish usullari. Qadimgi dunyo, feodal jamiyati iqtisodiy ta'limotlari</p> <p>Iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, ta'limotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixiy jarayoni. Ilmiy davrlash prinsiplari (tamoyillari), boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, xalq xo'jaligi tarixi, ekonomiks) bilan chambarchas bog'liqligi. Iqtisodiy fan tarixida maktablar va yo'nalishlar tushunchasi. Yangicha ijobiy fikrlash, umumiy iqtisodiy madaniyatni tarbiyalash, fan muammolari, dogmatik va zamonakashlik asosida yondashishning oldini olish, iqtisodiy g'oyalarni chuqur o'zlashtirish va talabalarni tarbiyalashda fanning ahamiyati.</p> <p>Qadimgi Sharq davlatlari iqtisodiy taraqqiyotining muammolari, xususiyatlari. Qadimgi Bobil davlatining g'oyalari. Qadimgi Misr. Misrning iqtisodiy g'oyalari. Xammurapi qonunlari. Qadimgi Hindistonning iqtisodiy g'oyalari. Manu qonunlari. "Artxashastra" traktati. Qadimgi Xitoy iqtisodiy fikrlari. Konfutsiychilar va legistlarning ta'limoti. Guan-szi traktatlari. Ilk sotsial (ijtimoiy) utopiyalar. Zardo'shtizm (Avesto)dagi iqtisodiy g'oyalar. Qadimgi</p>			

Gretsiya ilk quldorlik jamiyatining iqtisodiy qarashlari. Ksenofont. Aflotun (Platon)ning iqtisodiy loyihalari. Aristotelning iqtisodiy qarashlari. Iqtisodiy jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirish yo'lidagi ilk urinishlar. Qadimgi Rimning iqtisodiy konsepsiyalari. Katon, Varron, Kolumella Aka-uka Grakxlar agrar islohotining iqtisodiy asoslari. Kolonat ilg'orligining tan olinishi. Tomas Akvinskiy.

2-mavzu. O'rta asr iqtisodiy qarashlari.

Marg'inoniyning «Hidoya» asari, undagi iqtisodiy fikrlar, iqtisodiy qonunchilik, zakot, chorva mollari, qo'y-qo'zi, qoramollardan olinadigan zakot miqdori, Forobiy asarlarida "ehtiyoj", mehnat, mehnat taqsimoti, inson omili masalalarining yoritilishi. Beruniyning asarlarida kishilik ehtiyojlarining paydo bo'lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va hunarga munosabatlari. Ibn Sino asarlarida ehtiyoj, mehnat taqsimoti, mehnat qurollari ahamiyati. Fozil davlat to'g'risidagi g'oya. Insonlarning manaviyati va iqtisodiyot o'rtasidagi munosabat. Savobli ish. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridagi iqtisodiy fikrlar. Xazina (byudjet), uni to'lash, asrash hisob-kitob masalalari. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari, unda raiyatning hukmdorga talablari: mulk daxlsizligi, pulning qadr-qiyamati, savdo yo'llarining bexatarligi to'g'risidagi fikrlar. Yusuf Xos Xojib va Rabguziy g'oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyati.

XIV asr oxiridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Amir Temurning iqtisodiy siyosati. "Temur tuzuklari", undagi iqtisodiy g'oyalar. Rivojlanish omillari: tinchlik-osoysishtalik; me'yordagi soliqlar; davlat roli.

Ulug'bekning iqtisodiy g'oyalari va iqtisodiy siyosat. Moliya-pul islohotining ahamiyati. Oltin va kumush tangalar o'rniga mis pullarining zarb qilinishi. «Fulusiya pullari». Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Dehqon, hunarmand mehnatining ulug'lanishi. Savdo, savdogar va tovlamachilarga munosabat. Olib-sotarlarning ijobiy va salbiy xizmatlari. Iqtisodiyot va davlat, hukmdorning roli.

Bobur va uning vorislari olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mohiyati. Boburning "Boburnoma", "Mubayyin" va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Humoyun va Akbarshoh davridagi ijtimoiy-iqtisodiy fikrlar va siyosat, yangi yil hisobi, yagona uzunlik va og'irlik o'lchovlarining kiritilishi. Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning hozirgi davr uchun ahamiyati.

3-mavzu. Merkantilizm iqtisodiy ta'limoti.

Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni. Merkantilizm g'oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Ilk merkantilizm monetar

tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm, Monkret'en (Fransiya). Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamlakatlardagi ko'rinishi: Italiya- merkantilizmi, Angliya-proteksionizmi, Fransiya-kolbertizmi, Germaniya-kameralistikasi. Merkantilizmning tarixiy taqdiri.

4-mavzu. Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi

Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va umumiy xarakteristikasi. Vilyam Petti asarlari, uning merkantilizmga munosabati. Petti uslubi (metodi), xususiyatlari qiymatning talqini. Iste'mol va almashuv qiymatiga munosabat, muomaladagi pul miqdorini aniqlash. Ish haqi, yer rentasi, yer bahosi va foiz (protsent). P'er Buagilberning qiymat talqini, iste'mol va ayirboshlash qiymati, pulga munosabat. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining vujudga kelishi (Fransiya). Fransua Kene asarida merkantilizmni tanqid. Fiziokratlarning iqtisodiy dasturi. "Tabiiy tartib" konsepsiyasi. "Sof mahsulot" nazariyasi. "Unumli va unumsiz mehnat" talqini. A. Tyurgo asarlarida fiziokratik tizimni rivojlantirilishi. Fiziokratizmning ahamiyati va tarixiy taqdiri.

5-mavzu. Adam Smit, David Rikardo va Yevropa klassik iqtisodiy tafakkuri

A.Smit asarlarida klassik maktab g'oyalarining yanada rivojlantirilishi. A.Smit "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot" nomli asari, feodalizmga munosabat. A.Smitning qiymatning mehnat nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi. Qiymatni talqin qilishdagi ziddiyatlar. Daromadlar nazariyasi, ish haqi, foyda, yer rentasining turli xil talqinlari. D.Rikardo-sanoatning fabrika davri mafkurachisi. Uning "Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi" asaridagi asosiy iqtisodiy g'oyalar. Rikardoning Smit g'oyalariga mutanosibli va farqlari. Qymatning yangicha talqini, sinflar daromadi o'rtasidagi qarama-qarshilik, erkin savdo-fritrederlik, jahon mehnat taqsimotining ilgari surilishi, ixtisoslashuv, nisbiy afzallik nazariyasi.

6-mavzu. Klassik iqtisodiy maktabning yakunlanishi.

Muqobil iqtisodiy g'oyalar paydo bo'lishining tarixiy shart-sharoitlari va xarakteristikasi. T. Maltus. Uning "nufus nazariyasi", qymat nazariyasi va foyda masalalarining klassik maktabga xos ziddiyatlaridan foydalanish. T.Maltusning realizatsiya nazariyasi.

J.Mill, D. Mak-Kullox va boshqalarning asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. J.S.Millning tadqiqot predmeti va ijtimoiy islohot dasturi. F.Bastia (Fransiya), G.Keri (AQSh)ning konsepsiyalari. Xizmat ko'rsatish nazariyasi. N.Seniorning "tiyilish" va "so'nggi soat" nazariyalari.

J.B.Sey. Uning metodologiyasi, qiymatning tahlili, ishlab chiqarishning uch

omili (kapital, yer, mehnat) va kapitalning qiymati unumdorligi haqidagi o'ylar.

F.List va uning "Siyosiy iqtisod" sistemasi. Germaniyadagi tarixiy maktabning asoschilari V.Rosher, K.Knis, B.Gildebrand. Sismondi, Prudon va Rodbertus. Mayda ishlab chiqarish nazariyalari mohiyati. Sismondi (1773-1842) mayda ishlab chiqarishga munosabat; mehnat, qymat va pul; ijtimoiy fanning ikki qismi: oliy siyosat va siyosiy iqtisod. Sismondi uslubiyati. Kapitalizmga munosabat, milliy daromad va kapital muammosi, uchinchi shaxslar nazariyasi. Prudon (1809-1865) kapitalizmni isloh qilish konsepsiyasi, qiymatning abadiy g'oyasi, belgilangan qiymat. Rodbertus (1805-1875) – qo'shimcha qiymat va taqsimot nazariyalari.

XIX asr boshlarida xayoliy sotsializm vujudga kelishining shart- sharoitlari va uning umumiy tavsifi. A.Sen-Simon. Uning tarixiy konsepsiyasi. Burjua jamiyatining tanqidi. Yangi industrial tizim loyihasi. Sen-Simonizm evolyutsiyasi. Sh.Fur'ening tarixiy rivojlanish konsepsiyasi. Fur'e kapitalizm tanqidchisi sifatida. R.Ouen. Uning amaliy faoliyati, kapitalizm tanqidi. Jamiyatni sotsialistik o'zgartirish rejaları. "Mehnat pullari" va "adolatli ayirboshlash" loyihasi.

K.Marks va uning uslubiyoti, qiymatning mehnat nazariyasi. Marksning kapitalizm tahlili, mulk shakllarining tadqiqoti.

7-mavzu. Marjinalizm iqtisodiy ta'limoti.

Marjinalizm. Iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik yo'nalishning shakllanishi. Avstriya maktabi. K.Menger, O.Byom-Baverk, F.Vizer siyosiy iqtisod predmeti va metodlarining sub'ektiv-psixologik nuqtai-nazardan talqin qilinishi. "Sub'ektiv" va "ob'ektiv" boyliklar nazariyasi, protsent (foiz) va foyda manbaining psixologik nuqtai nazardan tushuntirib berilishi. Eng yuqori naf nazariyasining inglizcha varianti. U.Jevons, L.Valras.

8-mavzu. Neoklassik iqtisodiy maktab qarashlari

Kembrij maktabi yoki yangi klassik (neoklassik) yo'nalish. J.B.Klarkning iqtisodiy ta'limoti. Uning "Boylik falsafasi" va "Boylik taqsimoti" asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. "Ishlab chiqarish omillarining eng yuqori unumdorligi to'g'risidagi qonuni". Iqtisodiy jarayonlarda vaqt ahamiyatini hisobga olish. "Statika" va "dinamika"ning uslubiy (metodologik) konsepsiyasi. Ishlab chiqarish omillari eng yuqori unumdorligi nazariyasi. Lozanna maktabi. L.Valrasning umumiy iqtisodiy muvozanat modeli. Ekonometrika. V.Paretoning umumiy iqtisodiy muvozanat konsepsiyasi.

9-mavzu. Keynes va zamonaviy keynschilar

Buyuk depressiya, iqtisodiy inqirozlar. J.M.Keyns. «Bandlik, foiz va pulning

umumiy nazariyasi» (1936) asaridagi iqtisodiy g'oyalar. Bandlik, iste'mol va jamg'arishning iqtisodiyot uchun ahamiyati. Iqtisodiyotni boshqarishda davlat aralashuvining zarurligi. Pul, investitsiya, likvidlik, kapitalning eng yuqori samaradorligi, foiz stavkasi, multiplikator effekti. Keynschilik va yangi keynschilik. E.Xansen, S.Xarris asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Fransiyadagi keynschilik. Stagnastika nazariyasi, dirijizm. Akselerator tushunchasi. Imperativ va indikativ rejalashtirish. Iqtisodiy o'sish nazariyalari. Postkeynschilik. Keyns g'oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyati. Iqtisodiy o'sish nazariyalari va keynschilik.

10-mavzu. Neoliberal iqtisodiyot

Neoliberalizm g'oyalarining mohiyati va vujudga kelish shart-sharoitlari. Neoliberalizm yo'nalishlari va oziga xosligi. Ordoliberalizm. Xayek va Mizesning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlari, sotsialistik iqtisodga munosabati. V.Repkening ordoliberalizmi.

Valter Oyken iqtisodiy tizim turlari to'g'risida.

Lyudvig Erxardning iqtisodiy islohotlari. Ijtimoiy bozor xo'jaligi va unda davlatning roli. Neoliberalizm evolyutsiyasi.

11-mavzu. Milton Fridman va monetarizm

Monetarizm g'oyalarining mohiyati va vujudga kelish shart-sharoitlari. Stagflyatsiya va iqtisodiyotga davlat aralashuvining oqibatlari. M.Fridmanning monetar maktabi. Monetarizmning asosiy qoidalari. Monetarizmning ahamiyati.

12-mavzu. Institutsionalizm.

Institutsionalizmning asosiy xususiyatlari, evolyutsiyasi. T.Veblen g'oyalari. "Bekorchi sinflar nazariyasi" asaridagi iqtisodiy g'oyalar. J.R.Kommons qarashlari. U.K.Mitchell g'oyalari. Kon'yunktur-statistik institutsionalizm oqimi. Iqtisodiyotda bashorat (prognoz) masalalari sikli k davriy o'zgarishlar nazariyalarining paydo bo'lishi. Ijtimoiy-institutsional yo'nalish. Nomukammal bozor ta'limotlari. Chemberlen monopolistik raqobat to'g'risida. J.Robinsonning nomukammal raqobat nazariyasi. Samaradorlik va adolat dilemmasi. J.K.Gelbreytning iqtisodiy qarashlari. J.Shumpeter. Neoinstitutsionalizm.

13-mavzu. Xalqaro savdo to'g'risidagi iqtisodiy ta'limotlar

Mutloq ustunlik nazariyasi. Qiyosiy ustunlik nazariyasi. E.Xeksher-B. Olin nazariyalari. V.Leont'yev paradoksi. "Mahsulotning hayotiy sikli" nazariyalari. Raqobat ustunligi nazariyasi. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro valyuta munosabatlarini tadqiq etishning tanqidiy yo'nalishi.

14-mavzu. Iqtisodiy o'sish to'g'risidagi nazariyalar.

Iqtisodiy o'sish to'g'risidagi dastlabki nazariyalar. Shumpeterning iqtisodiy o'sish nazariyasi. Yetarlicha iste'mol qilmaslik bo'yicha bahslar.

Iqtisodiy o'sishning Xarrod-Domar modeli. Kobb-Duglasning ikki omilli modeli. E.Denison: iqtisodiy o'sish arifmetikasi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy (seminar) mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining predmeti va o'rganish usuli.
2. Qadimgi dunyo, feodal jamiyati va ilk kapitalizmning iqtisodiy ta'limotlari
3. O'rta asrlardagi O'rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari
4. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahamiyati
5. Angliya va Fransiyada klassik maktabning shakllanishi
6. Adam Smit, David Rikardo va Yevropa klassik iqtisodiy tafakkuri
7. Klassik maktabga muqobil ta'limotlar.
8. Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar
9. Keynes va zamonaviy keynschilar
10. Neoliberal iqtisodiyot
11. Milton Fridman va monetarizm
12. Institutsionalizm yo'nalishi mohiyati va ahamiyati.
13. Xalqaro savdo to'g'risidagi iqtisodiy ta'limotlar
14. Iqtisodiy o'sish to'g'risidagi nazariyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

15. Qadimgi dunyo iqtisodiy ta'limotlari
16. Feodal jamiyati va ilk kapitalizmning iqtisodiy ta'limotlari
17. O'rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari
18. Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat.
19. Merkantilizm
20. Angliya va Fransiyada klassik maktabning shakllanishi
21. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining ahamiyati.
22. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi.
23. Adam Smit va David Rikardolar iqtisodiy ta'limotlari

	<p>24. Klassik maktabga muqobil ta'limotlar.</p> <p>25. Bozor iqtisodiyotiga muxolif-sotsialistik yo'nalish mohiyati.</p> <p>26. XIX asr boshlarida xayoliy sotsializm vujudga kelishining shart- sharoitlari va uning umumiy tavsifi.</p> <p>27. Marjinalizm ta'limoti</p> <p>28. Avstriya maktabi. Lozanna maktabi. Kembrij maktabi. Amerika maktabi.</p> <p>29. Neoklassik iqtisodiy maktablar</p> <p>30. Keynes va zamonaviy keynschilar</p> <p>31. Neoliberal iqtisodiyot</p> <p>32. Milton Fridman va monetarizm</p> <p>33. Ijtimoiy bozor xo'jaligi va unda davlatning roli</p> <p>34. Institutsionalizm. Neoinstitutsionalizm.</p> <p>35. Nomukammal bozor ta'limotlari.</p> <p>36. Xalqaro savdo to'g'risidagi iqtisodiy ta'limotlar</p> <p>37. Raqobat ustunligi nazariyasi.</p> <p>38. Iqtisodiy o'sish to'g'risidagi nazariyalar</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
<p>3.</p>	<p>IV. Ta'lim natijalari / Kasbiy komponentlari:</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <p>Turli davrlar va jamiyatlardagi iqtisodiy fikrlar va ta'limotlar to'g'risida, iqtisodiy taraqqiyotga olib kelgan g'oyalar va iqtisodiy siyosatning mazmuni haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; (bilim)</p> <p>Iqtisodiy taraqqiyotga olib kelgan g'oyalar va iqtisodiy siyosatning mazmunini, o'sha davr va hozirgi zamon uchun ahamiyatini, ijobiy g'oyalarning iqtisodiy ta'limot yoki nazariyalar darajasiga erishmaganligini, iqtisodiy rivojlanishning yuksalish va sustlashuv sabablarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; (ko'nikma)</p> <p>Turli davrdagi iqtisodiy g'oyalarni umumlashtirish, solishtirish va tahlil etish, ulardan ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish va takliflar bera olish, turli jamiyatlardagi iqtisodiy fikrlar va ta'limotlar to'g'risida ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalana olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</i></p>
<p>4.</p>	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'ruzalar; - interfaol keys – stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Harry Landreth, David C.Colander. History of Economic Thought. https://dokumen.tips/documents/01-history-of-economic-thought-intro-by-harry-landreth-author-david-c-colander.html 2. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. - T. .: Moliya, 2007. – 320 b. 3. Sh. Toshmatov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot -matbaa uyi”, 2021. –504 b. 4. История экономических учений: учебник и практикум для вузов / С. А. Толкачев [и др.]; под редакцией С. А. Толкачева. — Москва: Издательство Юрайт, 2021. — 509 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-02683-2. — Текст: электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: https://urait.ru/bcode/469014 <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - https://lex.uz/docs/-6445145 6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.:“O'zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b. 7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 47 b. 8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.:“O'zbekiston” NMIU, 2017. - 485 b. 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. – “Xalq so'zi” gazetasi, 2022 yil 21 dekabr soni. 10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi ni tasdiqlash to'g'risida”gi №PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-5841063 11. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Ma'ruzalar matni. - T.: TDIU, 2007. - 256 b. 12. Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik..-T.: «Innovasiya- Ziyo» nashr, 2020. — 388 bet. https://renessans-edu.uz/files/books/2023-10-16-11-00-45_da1eed488c5b7f51c77bddb085e0f997.pdf <p>Axborot manbalari</p>

	<p>13. www.lex.uz</p> <p>14. www.natlib.uz</p> <p>15. www.stat.uz</p> <p>16. www.cbu.uz</p> <p>17. www.tdau.uz</p> <p>18. https://lifelong-learning.ox.ac.uk/courses/history-of-economic-thought-online?code=O25P430SOV</p> <p>19. https://la.utexas.edu/users/hcleaver/368/368readings.html</p> <p>20. https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/courses/39768/history-of-economic-thought-information/6558310</p>
7.	Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 202__ yil "___" _____ dagi ___-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sullar:</p> <p>D.N. Saidova - TDAU "Agroiqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>E.H.Botirov - TDIU "Iqtisodiy xavfsizlik" kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori (turdosh OTM);</p> <p>Sh.Olimjonova - O'zMU "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi (turdosh OTM).</p>

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ihlab chiqilgan:

№	OTM nomi	QS	THE	Top-300 ta'lim dasturi asosida kiritilgan qo'shimchalar	Mazkur dasturdagi mavzu nomi	Havolalar
1	University of Oxford	3-o'rin	1-o'rin	6-mavzu. Adam Smit, David Rikardo va Yevropa klassik iqtisodiy tafakkuri	Adam Smith, David Ricardo and classical European economic thought	https://lifelong-learning.ox.ac.uk/courses/history-of-economic-thought-online?code=O25P430SOV
2	University of Oxford	3-o'rin	1-o'rin	11-mavzu. Milton Fridman va monetarizm	Milton Friedman and Monetarism	https://lifelong-learning.ox.ac.uk/courses/history-of-economic-thought-online?code=O25P430SOV
3	University Texas	68-o'rin	50-o'rin	10-mavzu. Neoliberal iqtisodiyot	Neoliberal Economics	https://la.utexas.edu/users/hcleaver/368/368readings.html
4	University Leiden	102-o'rin	73-o'rin	9-mavzu. Keyns va zamonaviy keynschilar	Keynes (continued) and Modern Keynesians	https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/courses/39768/history-of-economic-thought-information/6558310